

KORPORATIV STRATEGIYA YO'NALISHI SIFATIDA KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH

Omonov Sardor O'limasovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchi (DSc), PhD,,
E-mail: sardoromonov7777@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi kapital bozori instrumentlaridan korporativ strategiya yo'nalishida foydalanish masalasi tahlil qilingan. Investorlar faoliyatidagi asosiy muammolar, xususan axborot tanqisligi, past likvidlilik va institutsional himoyaning yetarli emasligi ko'rsatib o'tilgan. Aksiyalar va obligatsiyalar bozorining holati statistik tahlil qilinib, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun xorijiy institutsional investorlar ishtirokining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kapital bozori, investorlar faolligi, korporativ strategiya, obligatsiyalar, institutsional investorlar, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация

В тезисе проанализировано использование инструментов фондового рынка как направления корпоративной стратегии. Рассматриваются ключевые проблемы деятельности инвесторов — дефицит информации, низкая ликвидность и недостаточная защита прав. Представлен статистический анализ рынка акций и облигаций. Обоснована роль иностранных институциональных инвесторов в обеспечении долгосрочной финансовой устойчивости и развитии капиталового рынка.

Ключевые слова: фондовый рынок, активность инвесторов, корпоративная стратегия, облигации, институциональные инвесторы, финансовая устойчивость.

Abstract

This thesis analyzes the use of capital market instruments as a direction of corporate strategy. It highlights key issues in investor activity, such as information asymmetry, low liquidity, and insufficient legal safeguards. A statistical overview of the equity and bond markets is provided. The study underscores the role of foreign institutional investors in enhancing long-term financial stability and supporting capital market development.

Keywords: capital market, investor activity, corporate strategy, bonds, institutional investors, financial stability.

Bugungi kunda milliy kapital bozorimizda investorlar faoliyatida turli muammolar saqlanib qolmoqda. Eng katta muammolardan biri bozorning shaffof emasligidir. Axborot tanqisligi investorlarning to'g'ri qaror qabul qilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bozorning past likvidliliigi investorlarning bozordagi investitsiya faoliyatida tezda qaror chiqarishida qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, yuridik va tartibga solish mexanizmlarining qoniqarli darajada ishlamasligi investorlarning huquqlarining ta'minlanmasligiga hamda ularning ishonchining pasayishiga sabab bo'ladi.

Qolaversa, mahalliy kapital bozorining global kapital bozorlari bilan integratsiyasi yetarli darajada emasligi hamda valyuta riskining yuqoriligi xorijiy investorlar uchun xavf tug'diradi. Yuqoridagilar kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, kapital bozorida investorlar faoliyati tahlilini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

B. Wang va Y. Luo "institutsional investorlar o'zlarining monitoring va ma'lumot yig'ish rollari orqali korporativ moliyaviy qarorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Institutsional investorlar boshqaruvning xatti-harakatlarini samarali kuzatishlari mumkin. Keng qamrovli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, institutsional investorlar korporativ boshqaruvda bevosita ishtirok etish orqali o'z manfaatlarini ilgari surishlari mumkin" [1], ekanligiga e'tibor qaratgan.

Moliyaviy liberallashtirish rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi qizg'in muhokama qilinayotgan mavzulardan hisoblanadi. Xorijiy institutsional investorlar kapital bozorini barqarorlashtirishda ijobiy roli mavjudligi bo'yicha tadqiqotchilar turlicha qarashlarga ega. Bir qator olimlarning fikricha, "xorijiy institutsional investorlar fond bozoriga beqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Chet el institutsional investorlari uchun ochiqlikni ta'minlash sotib oluvchilarning salbiy ta'sirini yumshatish orqali narxlarning o'zgaruvchanligini kamaytiradi, chunki institutsional investorlar, odatda, bozor haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'ladi" [2]. Xorijiy institutsional investorlar kapital bozorining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning bozordagi ishtiroki likvidlikni oshirishga yordam beradi. Uzoq muddatli investitsiyalar orqali bozor tebranishlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Xorijiy investorlar yirik moliyaviy resurslarga ega bo'lib, kompaniyalarning kapital bilan ta'minlanishiga hissa qo'shishini qayd etish joiz.

1-jadval

Birja savdo maydonlaridagi savdolar tahlili [3]

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, mln. so'm
Aksiyalar bozori	Main board	24833	556 589 415	3 320,44
	Nego board	12	1 160 804	84 055,90
	FoP board	16	7 807 236 199	969 441,27
Obligatsiyalar soni	Main board	234	113 659	12 314,62
Jami		25095	8 365 100 077	1 069 132,23

Birja savdo maydonlaridagi savdolar tahlili bo'yicha muhim ko'rsatkichlar kuzatilmoqda. Aksiyalar bozorida savdolar uchta asosiy maydonda amalga oshirilgan (1-jadval). Main board bozorida 24 833 ta bitim bajarilgan va 556,6 million dona qimmatli qog'oz savdoga qo'yilgan. Ushbu maydondagi umumiy bitimlar hajmi 3 320,44 million so'mni tashkil etdi. Nego board bozorida esa atigi 12 ta bitim amalga oshirilgan bo'lsa-da, 1,16 million dona qimmatli qog'oz aylanmasi kuzatildi. Bu

maydondagi bitimlar hajmi sezilarli darajada yuqori bo'lib, 84 055,90 million so'mni tashkil etdi. FoP board savdo maydonida esa bitimlar soni nisbatan kam bo'lib, atigi 16 ta bo'lsa ham, qimmatli qog'ozlar hajmi juda katta – 7,8 milliard donaga yetgan. Bu maydonda bitimlar umumiy hajmi 969 441,27 million so'mni tashkil qildi. Obligatsiyalar bozorida esa Main board orqali 234 ta bitim amalga oshirildi. Ushbu bozor segmentida 113 659 dona obligatsiya savdosi bo'lib o'tdi. Obligatsiyalar bozoridagi umumiy bitimlar hajmi 12 314,62 million so'mni tashkil qildi. Umuman olganda, barcha bozor segmentlaridagi jami bitimlar soni 25 095 tani tashkil etdi. Umumiy qimmatli qog'ozlar soni 8,37 milliard donadan oshdi. Jami bitimlar hajmi esa 1 069 132,23 million so'mga yetdi. Ushbu tahlil birja savdo maydonlarida turli bozor segmentlari orasidagi tafovutni ko'rsatadi. Aksiyalar bozorida eng katta bitim hajmi FoP board segmentida qayd etildi. Nego board esa eng kam bitim soniga ega bo'lsa ham, yuqori hajmli bitimlar bilan ajralib turdi. Obligatsiyalar bozorida esa nisbatan kam bitimlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu segment investorlar uchun muhim investitsiya manbai bo'lib qolmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar birja bozorining faoliyatini tahlil qilish va kelajakdagi investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda institutsional investorlar tomonidan uzoq muddatli korporativ obligatsiyalarni mahalliy va xalqaro kapital bozoriga samarali joylashtirish amaliyotiga e'tibor qaratish lozim. Xalqaro korporativ obligatsiyalar emissiyasi orqali nisbatan arzon va katta hajmdagi moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati mavjud. Shu boisdan tijorat banklarining qisqa va uzoq muddatli korporativ obligatsiyalarini mahalliy va xalqaro kapital bozoriga emissiya qilish faoliyati kengaytirilishi zarur. Shuningdek, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligatsiyalari, qisqa va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ emitentlarning qisqa va uzoq muddatli obligatsiyalari, shuningdek, yashil obligatsiyalar (green bonds) va ko'k obligatsiyalar (blue bonds) bilan bog'liq operatsiyalarga ham ahamiyat berilishi lozim. Bu orqali nafaqat mahalliy kapital bozori rivojlanadi, balki tijorat banklari katta hajmdagi moliyaviy resurslarni jalb etishi va yangi loyihalarni moliyalashtirishi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bin Wang, Yan Luo. Institutional investors, heterogeneity, and capital structure decisions: Evidence from an emerging market. // Research in International Business and Finance, Volume 68, January 2024.
2. Liyan Han, Qingqing Zheng, Lei Li, Libo Yin. Do foreign institutional investors stabilize the capital market? // Economics Letters, Volume 136, November 2015, Pages 73-75.
3. <https://uzse.uz/analytics/> - "Toshkent" RFB rasmiy sayti ma'lumotlari